

# COLLECTION

Innovation, integration and modern  
problems in the scientific activities of young  
researchers and students: theory and  
practice

www.d-pressa.com

31  
MARCH



Jizzakh, Uzbekistan

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF  
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN  
NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE TECHNOLOGY & DIGITAL FINANCE  
JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young  
researchers and students: theory and practice collection of materials of the  
international scientific and practical conference on the topic

(March 31, 2026)

Jizzakh-2026

**Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young researchers and students: theory and practice** – Jizzakh: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, March 31, 2026, 990 pp.

**Editors in charge:** Ass.prof. Soy M.P.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

## O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Bo‘ltakov Sardor Oqbo‘ta o‘g‘li**

*O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası  
stajyor o‘qituvchi*

[sardorboltakov9@gmail.com](mailto:sardorboltakov9@gmail.com)

**Axrorov Sardor Anvarjon o‘g‘li**

*O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali Iqtisodiyot yo‘nalishi 131-23  
guruh talabasi*

[sardoraxrorov608@gmail.com](mailto:sardoraxrorov608@gmail.com)

---

**Annatsiya.** So‘nggi yillarda jahon miqyosida iqtisodiy rivojlanish modellari sezilarli darajada o‘zgarib, an’anaviy yuqori resurs sarfi va ekologik yuklama asosidagi tizimlar o‘rni barqaror, energiya samarador va ekologik xavfsiz iqtisodiyot modellari egallamoqda. “Yashil iqtisodiyot” tushunchasi aynan shu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadi. U nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholining farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. O‘zbekiston ham global barqaror rivojlanish tendensiyasida faol ishtirok etmoqda. 2019-yilda mamlakat “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi 2019–2030”ni qabul qilgan bo‘lib, unda qayta tiklanuvchi energiya, energiya va suv resurslarini tejash, chiqindisiz ishlab chiqarish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni mamlakatning iqtisodiy tuzilmasini, sanoat tarmoqlarini va jamiyatni moslashtirishni talab qiladi.

**Kalit so‘zlar:** energiya samaradorligi, innovatsion texnologiyalar, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat, yashil energetika.

O‘zbekistonni yashil iqtisodiyotga o‘tishga bir necha omillar majbur qilmoqda. Avvalo, mamlakat tabiiy resurslari cheklangan bo‘lib, suv, energiya va yer resurslaridan oqilona foydalanish ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi. Sanoat va qishloq xo‘jaligida resurslardan samarali foydalanmaslik ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va raqobatbardoshlikni pasaytiradi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish orqali energiya va suv sarfini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va resurslarni tejamkor ishlatish mumkin. Shu bilan birga, barqaror muhit va resurslarni tejash aholiga sog‘lom yashash sharoitini yaratadi, yangi ish o‘rinlari va yashil texnologiyalar sohasidagi imkoniyatlarni kengaytiradi. Global miqyosda yashil iqtisodiyot tendensiyasi kuchayib borayotgan bir paytda, O‘zbekiston uchun bu ekologik, iqtisodiy va strategik jihatdan zaruriyatdir.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muvozanatni saqlash, balki iqtisodiy raqobatbardoshlik va ijtimoiy farovonlikni oshirishning muhim vositasidir. Resurslarni tejash va chiqindilarni kamaytirish orqali tabiiy muhitni himoya qilish, ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish mumkin.

Shu bilan birga, energiya samaradorligini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi hamda aholining turmush darajasini yaxshilashga hissa qo'shadi.

Biroq jarayon hali bir qator muammolar bilan cheklangan: texnologik infratuzilma yetishmasligi, aqlli tarmoqlar va smart-monitoringni keng joriy eta olmaslik, moliyaviy cheklovlar va investitsiya yetishmasligi loyihalarni to'liq amalga oshirishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, malakali kadrlar yetishmovchiligi va ekologik xabardorlikning pastligi barqaror rivojlanishga jamoatchilikning faol qo'shilishini cheklaydi. Shu sababli O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishi texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional masalalarni hal qilishni talab qiladi.

O'zbekiston hukumati yashil iqtisodiyotga o'tishni ta'minlash maqsadida bir qator strategik va amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Jumladan 2019-yilda qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi 2019–2030" asosida qayta tiklanuvchi energiya, energiya va suv resurslarini tejash, chiqindisiz ishlab chiqarish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish yo'nalishlari belgilangan. Shuningdek 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida 02.12.2022 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentini Sh.Mirziyoyevning qarori va shukabi hukumat qarorlari ishlab chiqilib qabul qilinmoqda. Bu qonun va farmoishlar asosida O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga oid istiqbolli chora va vazifalar qabul qilingan .

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida 02.12.2022- yildagi qaroriga muvofiq :

a) quyidagi strategik maqsadlarga erishishga mo'ljallangan 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi 1-ilovaga muvofiq:

- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
- yiliga 200 million ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish;

- respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;

kabi muxim vazifalar belgilanib ijoro jarayoni davom etib kelmoqda.

O‘zbekiston shuningdek yashil energetika sohasida ham bir qancha istiqbolli natijalarga erishmoqda. Xususan, 2025-yilda O‘zbekistonda jami 3,4 ming megavatt quvvatga ega 18 ta quyosh va shamol stansiyalari hamda 1,8 ming megavattli energiya saqlash tizimlari ishga tushiriladi. Bu loyiha natijasida “yashil energiya” ishlab chiqarish hajmi 12 milliard kilovatt soatga yetishi kutilmoqda. Ushbu hajm 5 million xonadonning bir yillik energiya iste‘moliga teng bo‘lib, shuningdek, atmosferaga chiqariladigan 6,5 million tonna zararli gazlarning oldini oladi.

Kelgusi ikki yil davomida xususiy tadbirkorlar bilan hamkorlikda 2 mingdan ortiq kichik va mikro quyosh elektr stansiyalari (GES) tashkil etish bo‘yicha keng qamrovli dastur amalga oshiriladi. Keyinchalik sohaga xususiy sektor kirib kelishini rag‘batlantirish va elektr energiyasi bozorini shakllantirish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yiladi. Shu jumladan, kelgusi yil yakuniga qadar raqobatli savdolar orqali ulgurji elektr energiyasi bozori yaratish rejalashtirilgan.

Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi uchun texnologik yechimlar va innovatsiyalar muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston sohalarida aqlli monitoring tizimlari, smart-metering va IoT texnologiyalari joriy etilmoqda, bu esa energiya va suv resurslarini samarali boshqarishga yordam beradi. Shamol, quyosh va biogaz energiyasidan foydalanish ishlab chiqarishning uglerod izini kamaytiradi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Qishloq xo‘jaligi, sanoat va qurilishda energiya tejankor texnologiyalar va chiqindisiz ishlab chiqarish jarayonlari ekologik xavfsizlikni ta‘minlab, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Shu yo‘l bilan texnologik innovatsiyalar O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ham katta. Resurslarni tejash va chiqindilarni kamaytirish orqali nafaqat ekologik muhit saqlanadi, balki ishlab chiqarish xarajatlari pasayadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Shu bilan birga, energiya samaradorligi va innovatsion texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi, aholining turmush darajasini oshiradi. Yashil loyihalar va qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi ish o‘rinlari ayniqsa yoshlar va yangi mutaxassislar uchun imkoniyat yaratadi, bu esa ijtimoiy barqarorlik va jamiyatning farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

### **Xulosa:**

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tishi nafaqat ekologik barqarorlikni ta‘minlash, balki iqtisodiy raqobatbardoshlik va ijtimoiy farovonlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini tatbiq etish orqali mamlakat ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi va aholining turmush darajasini yaxshilaydi. Shu bilan birga, texnologik innovatsiyalar, investitsiya imkoniyatlari va xususiy sektor ishtiroki yashil iqtisodiyotning samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kelajakda barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi va ekologik xavfsizlikni ta'minlash orqali O'zbekiston yashil iqtisodiyotni yanada kengaytirib, raqobatbardosh va ijtimoiy jihatdan barqaror mamlakatga aylanishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi 2019–2030".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida 02.12.2022- yildagi qarori.
3. <https://president.uz/oz/lists/view/5805>
4. <https://stat.uz/uz/>
5. Bo'ltakov S. O 'ZBEKISTONDA BALIQCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ISTIQBOLLARI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 565-567.
6. Bo'ltakov S. BALIQCHILIKDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI VAHOLASH MEZONLARI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 366-371.
7. Bo'ltakov S. et al. TURIZM SOHASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI AHAMIYATI //Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 60-62.
8. Bo'ltakov S. Innovatsion Usulda Baliq Yetishtirishning Iqtisodiy Samaradorligini Oshirish Yo 'llari (Sirdaryo Tumani Misolida) //Green Economy and Development. – Т. 3. – №. 9. – С. 666837.
9. G'aybullayev Sarvar O. et al. O 'ZBEKISTONDA ISTE'MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO 'NALISHLARI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 119-125.
10. Akramovich N. A., Sarvar G., Yassim H. THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 95-99.
11. Гайбуллаев С., Пулатова М. Ish haqi va mehnat munosabatlari //Новый Узбекистан: успешный международный опыт внедрения международных стандартов финансовой отчетности. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 370-372.
12. Sarvar G., Sirojiddin S., Xushnudbek P. FACTORS AFFECTING LABOR RELATIONS AND ITS WAGE //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 126-129.
13. G'aybullayev S. THE ROLE OF MARKETING ACTIVITIES IN INCREASING THE POTENTIAL OF TEXTILE ENTERPRISES //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – Т. 1. – С. 7.
14. G'aybullayev Sarvar O. et al. FRANCHAYZINGNING BUGUNGI IQTISODIY JARAYONLARDAGI AHAMIYATI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – Т. 1. – С. 16.